

2015 yilning I yarmi yakunlari bo'yicha "O'zkimyosanoat" DAK korxonalari faoliyati to'g'risida

// 27.07.2015

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/2015-yilning-i-yarmi-yakunlari-buyicha-uzkimyosanoat-dak-korxonalar-faoliyati-tugrisida>

2015 yilning yanvar-iyun oylarida "O'zkimyosanoat" korxonalarida **1102,5** mlrd. so'mlik tovar mahsulot (o'sish sur'ati 103,5%) hamda **110,6** mlrd.so'mlik xalq iste'mol mollari (o'sish sur'ati 137,4%) ishlab chiqarildi.

Sof holda **655,7** ming tonna mineral o'g'itlar, shu jumladan 511,6 ming tonna azotli o'g'itlar, 71,3 ming tonna fosforli o'g'itlar va 72,8 ming tonna kaliyli o'g'itlar ishlab chiqarildi.

Mahalliyashtirish dasturiga muvofiq 2015 yil yanvar-iyun oylarida **109 mlrd.so'mlik** mahsulot ishlab chiqarildi (prognoz 70,8 mlrd.so'm).

2015 yil Investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarni bajarish doirasida "O'zkimyosanoat" AO korxonalari tomonidan **65,4 mln.dollar** hajmida investitsiyalar o'zlashtirildi va prognoz 103,3%-ga bajarildi.

Xalqaro sanoat yarmarkasi va kooperatsion birjada tuzilgan shartnomalarga binoan **107,6 mlrd.so'mlik** mahsulot kompaniya korxonalari tomonidan sotib olindi (prognozga nisbatan 100,9%)

158 yangi ish o'rni, shu jumladan kasanachilik asosida 42 ish o'rni yaratildi.

Xududiy «Qishloqxo'jalikkimyo» aksiyadorlik jamiyatlaridagi mavjud texnikalar yordamida qishloq xo'jaligi korxonalariga 2015 yil yanvar-iyun oylari davomida **27314,6 mln.so'mlik** agrokimyoviy xizmatlar ko'rsatildi. Jumladan, **8851,4 mln.so'mlik 457,2 ming tonna** kompost tayyorlandi va sotildi, **349,7 ming tonna** organik va **455,0** mineral o'g'itlar fermer xo'jaliklari ekin maydonlariga yetkazib berildi. **954,3 ming gektar** g'alla va paxta maydonlarida mineral o'g'itlar sepilib, suspenziya tadbirlari o'tkazildi.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati